

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SUVERENETETI VA UNING ASOSIY TAMOYILLARI

*Azamova Sitora Ayonovna*

*SHDPI Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi*

*Nabiyeva Muyassar Abdurasul qizi*

*SHDPI Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi yo‘nalishi I-  
kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada xalqimizning mustaqillikka erishish yo‘lidagi say harakati, O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetiga erishishishi hamda uning qonun hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilganligi haqida ma‘lumot berilgan*

**Kalit so‘zlar:** *Suverenitet, O‘zbekiston Respublikasi, konstitutsiya, mustaqillik, xalq hokimiyati, konferensiya, qoida, norma, davlat*

Bizga ma'lumki suverenitet so‘zi fransuzchada tarjima qilinganda „Oliy hokimiyat“ degan ma'noni anglatadi. Suverenitet hokimiyatning ustunligi va davlatning ichki va tashqi siyosatdagi to‘la mustaqilligidir. Xalqaro huquqning rivoji jarayonida davlat suvereniteti haqidagi g‘oya muttasil takomillashib, mazmunan boyib bordi.

Davlat suvereniteti haqidagi g‘oya XVI asrda fransuz olimi Jan Boden tomonidan ilgari surilgan. U suveren bo‘lmagan davlatni davlat deb hisoblamagan. J.Boden bunda davlatning oliy hokimiyatini nazarda tutgan. Suverenitet xalqning to‘la hukmronligi yoki xalq boshqaruvi to‘la-to‘kis ta‘minlangan holatdir. Suverenitetni hurmatlash xalqaro huquq va xalqaro munosabatlarning asosiy munosabatlarning asosiy prinsipi sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustavida hamda boshqa xalqaro hujjatlarda belgilab qo‘yilgan. Davlatning suvereniteti uning boshqa davlatlar bilan munosabatlaridagi

mustakilligini ham bildiradi. Mustaqil davlatning faqat siyosiy emas, balki iqtisodiy mustaqilligini ham anglatadi.

Davlat suverenitetining eng muhim belgisi davlat hokimiyatining mamlakatning Konstitutsiyasi va qonunlaridan boshqa hech narsa bilan cheklanmasligidir. Davlat suvereniteti oʻrnatilgan mamlakat hududida boshqa hech qanday hokimiyat tuzilmalari boʻlmasligi kerak. Davlat suvereniteti amal qiladigan mustaqil davlatda qonuniy davlat organlarining hech qanday vakolatlariga boshqa hech qanday siyosiy va boshqa kuchlar tajovuz qilmasligi kerak

Davlat suvereniteti mamlakatning kelajagini belgilashda katta ahamiyatga ega. Mamlakat har jihatdan toʻla mustaqil boʻlsagina, uni suverenitetga ega davlat deb hisoblash mumkin. Mustaqillik natijasida davlatning suverenitetga xos jihatlari namoyon boʻladi.

XX asrning 90-yillariga kelib sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish va ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. Boshqacha qilib aytganda, bu davrga kelib koʻpgina mamlakatlarda mustaqillikka erishish masalasi dunyoni keng qamrab olgan tarixiy jarayonga aylandi. Oʻzbekistonning mustaqillikka erishishi ana shu olamshumul jarayon tarkibida yuz berdi. Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligi toʻgʻrisida: „Oʻzbekistonning faqat bitta yoʻli bor u ham boʻlsa-oʻzining mustaqilligini mustahkamlab olgʻa yurishidir“-degan edi birinchi prezidentimiz Islom Karimov.

XX asr 90-yillarining boshlariga kelib Oʻzbekistonda xalqning ana shu azaliy orzusini amalga oshirish kun tartibidagi bosh masala boʻlib qoldi.

90-yillarning boshlariga kelganda markaz va ittifoqdosh jumhuriyat-lar oʻrtasidagi munosabatlar keskinlashib, markaziy hokimiyatning obroʻyi pasayib ketdi. Siyosiy, iqtisodiy va xoʻjalik hayoti boshqa-rilmay qoldi. Oqibatda turmushning barcha sohalaridagi salbiy ah-voldan xalqning kun sayin noroziligi ortib, turmush darajasi yomon-lasha boshladi. Ishlab chiqarish va mehnat intizomi izdan chiqdi. Bu hoi tabiiy ravishda xalqning koʻzini ochdi, endi u eskicha buyruq-bozlik usulini qabul qila olmay qoldi.

Bir soʻz bilan aytganda, shu vaqtga kelib respublikalar suverenitetini va inson huquqlarini poymol qilgan totalitar buyruqbozlik boshqaruvining istiqbolsiz ekanligini hayotning oʻzi koʻrsata boshladi. Buni birgina sobiq SSSRda xalq xoʻjaligini bozor iqtisodiyotiga oʻtkazish hamda Yangi Ittifoq Shartnomasi tayyorlash borasidagi natijasiz qadamlarda ham koʻrsa boʻladi. 1990-yil sentabri boshlarida SSSR Oliy Kengashi IV sessiyasida N.Rijkov «fioshqariladigan bozor iqtisodiga oʻtishga tayyorgarlik va mamlakat xalq xoʻjaligida barqarorlikni vujudga keltirish haqida» maʼruza qildi. Unda deputatlarning avvalgi fikrlari inobatga olingan variant ishlab chiqilgani aytilsada, sessiya Hukumat Dasturini qabul qilmadi. Buning muhim sababi deputatlarda Hukumatga nisbatan ishonch yoʻqola borgan edi. Ayni chogʻda Hukumat Dasturi sobiq Ittifoqni saqlab qolishni, shuningdek iqtisodiyotni sotsialistik yoʻldan rivojlantirishni koʻzda tutar edi.

1990-yil 11-sentabrda RSFSR Oliy Soveti II sessiyasi S. Shatalinning «500 kun» Programmasini qabul qildi. Unda quyidagi masalalar koʻtarilgan edi:

- 1-- Fuqarolarni mulkka egalik huquqini, iqtisodiy mustaqillikni, erkin isteʼmol bozori va unda erkin narx;
- 2-korxonaning mustaqil iqtisodiy faoliyat huquqi;
- 3-ittifoqdosh respublikalarning mutlaq suvereniteti;
- 4- aholi turmush darajasini pasaytirmaslikni koʻzda tutar edi.

SSSR Oliy Sovetining 21-sentabrda boʻlib oʻtgan IV sessiyasida bu Dastur ham qabul qilinmadi. 1990-yil 24-sentabrda sessiya «Xalq xoʻjaligini barqarorlashtirishning kechiktirib boʻlmaydigan vazifalari»ni muhokama qilib, Hukumat Dasturi va S.Shatalin Dasturidan iborat Yagona Dastur ishlab chiqishga qaror qildi. 1990-yil 18-oktabrda sessiya: «Bozor iqtisodiyotiga oʻtish jahon amali-yotidan kelib chiqqan zarurat, ammo u iqtisodiyotning sotsialistik yoʻnalishiga ziyon yetkazmaydi», - deb xulosa berdi.

80-yillar oxiriga kelib, sobiq mamlakatda xalq xoʻjaligini

bozor iqtisodiyotiga oʻtkazishni hayotning oʻzi kun tartibiga qoʻya boshladi va uning huquqiy asoslarini yaratishni zaruratga aylantirdi.

Mamlakatimiz hayotidagi bu hodisalarni mutaxassislar mamlakat ijtimoiysiyosiy hayotiga uchta yo'nalishdagi kuchlar manfaatlari to'qnashgani bilan izohlaydilar. Jumladan:

**Birinchi kuchlar** - N.Rijkov va V.Pavlov Dasturi tarafdorlari. Ular sobiq SSSRni saqlab qolish, xalq xo'jaligini markazdan boshqarish, huquqni ko'proq markazda to'plash niyatida edilar. Ular iqtisodiyotni rivojlantirishda sotsialistik yo'ldan voz kechmaslikni talab qilar edilar.

**Ikkinchi kuchlar** - S.Shatalin guruhi a'zolari tarafdorlari. Ular SSSRni tarqatib yuborish, ittifoqdosh respublikalar o'rnida suveren, Mustaqil Davlatlar tuzish, cheksiz xususiy tadbirkorlikni rivojlanti-rish, mulkni davlat tasarrufdan chiqarish, xususiylashtirish, kolxoz va sovxozlarni tugatib, fermer xo'jaliklari tuzishni ko'zda tutdilar. Bu mohiyatan iqtisodiy rivojlanishning sotsialistik yo'lidan voz ke-chishni bildirar edi.

**Uchinchi kuchlar** - bu M.Gorbachyov Dasturini quvvatlovchilar. Ular murosa yo'lini qidirib, yuqorida tilga olingan har ikki dastur yo'nalishlarini uyg'unlashtirish va SSSRni saqlab qolish, markazlashgan ma'muriy buyruqbozlik hokimiyatini yo'qotmaslik, «shokovaya Terapiya» («falaj qilib davolash») usulidan foydalanish g'oyasini ilgari surar edi. Yangi Ittifoq Shartnomasini tayyorlash ham shu maqsadlarga yo'naltirilgan edi. Jumladan, yangi Ittifoq Shartnomasida mamlakat nomini ham «Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi» deb emas, «Mustaqil Sovet Respublikalari», «Mustaqil Davlatlar Ittifoqi» deb atash to'g'risidagi takliflar ham o'rta tashlana boshladi.

Sobiq SSSR ijtimoiy taraqqiyotida uchta yo'nalishtotalitarizmga qaytish, jahon tajribasiga xos transforma-tsiya va sotsialistik yo'nalishdagi demokratik kuchlar to'qnashib qolgan edi. Tabiiyki, bu mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tanaz-zulni vujudga keltirgan edi.

Ana shunday ziddiyatli bir sharoitda O'zbekiston rahbariyati bu yo'nalishlarning nomaqbul ekanligini aniq-ravshan ko'rdi va respublika xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazishning o'ziga xos yo'lini mustaqil tarzda o'zi belgilay boshladi.

Mamlakat ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining borishini to'g'ri kuzatib, to'g'ri baholay bilgan O'zbekiston ittifoqdoshlari orasida birinchilardan bo'lib, o'z mustaqilligini e'lon qildi.

1991 yil 31 avgustda,, O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonun qabul qilinadi va O'zbekiston „Mustaqil davlat"-deb e'lon qilinadi. «O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi

17 moddadan iborat bu qonun suveren O'zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab berdi.Qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga mustaqil demokratik davlat deb e'lon qilindi.

Faqat O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'nggina haqiqiy davlat suverenitetiga tom ma'noda ega bo'ldi. Konstitutsiyamizning 1-bobi aynan "Davlat suvereniteti"ga bag'ishlanadi. Ushbu bob 1-6-gacha bo'lgan moddalarni o'z ichiga oladi. Mana shu moddalarda O'zbekistonning suvereniteti belgilari aks etgan.Xususan konstitutsiyamizning 1-moddasida:«O'zbekiston - suveren demokratik respublika», deb belgilanishi davlat suverenitetining huquqiy asosi hisoblanadi. Yana konstitutsiyamizning 17-moddasida „O'zbekiston mustaqil davlat sifatida xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi "- deya mustahkamlab qo'yilgan

Shu tariqa, xalqimizning asriy orzusi, umidlari ushaldi, ro'yobga chiqdi. Uzoq yillar davom etgan kurash natijasida mamlakatimiz, xalqimizsiyosiy mutelikdan, asoratdan qutuldi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. O'zbekiston tarixida yangi davr – milliy istiqlol davri boshlandi. O'zbekiston uchun mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritish, xalqimiz uchun o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zlari uchun munosib

turmush tarzini yaratish imkoniyati vujudga keldi. Qisqa fursat ichida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi chetdavlatlar tomonidan tan olindi. Turkiya, Hindiston, Xitoy, Janubiy Koreya, Eron, Rossiya, AQSh, Yevropaning ko'pgina davlatlari tomonidan O'zbekiston mustaqilligi tan olindi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining suverenitetiga erishganidan so'ng „ O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir"deb konstitutsiyamzning 4-moddasida mustahkamlab qo'yildi va yana 5-moddada „ O'zbekiston respublikasi qonun bilan tasdiqlangan o'z davlat ramzlar-i bayrog'i gerbi va madhiyasiga ega"deya belgilab qo'yildi. Mustaqillik, suverenitet natijasida davlat faoliyatini yangicha qurish, xalq manfaati yo'lida xizmat qildirish imkoniyati vujudga keldi. Konstitutsiyaning 2-moddasida bu shunday ifodalanadi: «Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar». Davlatning xalq manfaatlariga xizmat qilishiga erishish demokratik jamiyat qurishda eng muhim shartdir.

O'zbekiston o'z mustaqilligi-ni qo'lga kiritgan paytda mamlakat ichkarisida bo'lgani kabi uning tashqarisida ham unga ishonmaydigan, shubha bilan qaraydiganlar bor edi. Hatto sobiq markazdagi ayrim «bashorat»lar O'zbekistonga nisbatan «O'zlaringni Mustaqil boshqarishga, Mustaqil davlat qurishga qodir emassizlar», «Sizlar mute, qaram xalqsizlar», «Sizlar uchun biz fikrlaymiz, nazariya yaratamiz, sizlar esa bajarasizlar, xo-los» deb shovinistlarcha g'arazgo'ylik qilsa, mamlakat ichkarisidagi ayrim toifalar o'rtasida «Endi O'zbekiston qanday yo'ldan boradi? Qanday jamiyat quradi? Markazsiz yashay oladimi? Respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ta'minlanadimi?» - qabilidagi savollar paydo bo'lgan edi. Unga har kim o'zicha javob qidirar edi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov, „**Ozodlikka faqat kurashib erishiladi**"-dedilar va „ **Bizning mustaqil davlatimiz biron-bir buyuk davlatning ta'siriga tushib qolish niyatida emas. O'zbekiston yana kimgadir bo'ysunish uchun mustaqil bo'lgani yo'q** "-deya o'z jumllalarini xalqning ongiga singdiriladar. Islom

Karimov xalqimizni mustabid tuzumidan olib chiqib O‘zbekiston taqdirini tubdan o‘zgartirgan edilar.

Keyingi vaqtlarda davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida erkinlashtirish siyosati olib borilayotganligi, Parlament institutining rivojlantirilganligi, ikki palatali parlamentga o‘tilganligi, hukumatning vakolatlari kengayayotganligi O‘zbekistonning suverenitetga egaligi, uning natijasida ichki va tashqi masalalarni mustaqil hal qilish huquqiga egaligi natijasidir.

Bugungi kunga kelib O‘zbekiston suverenitetni butun dunyo tan olib kelmoqda, Buning yaqqol isboti sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyevning suveren davlar rahbari sifatida BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilk bor o‘zbek tilida nutq so‘zlaganligini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Hozirda mamlakatimiz dunyo xaritasida mustaqil suveren, tinch totuv mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin egallagan. Shunday ekan biz yoshlar xalqimizning qiyinchiliklari sabr toqati, matonati bilan erishgan mustaqilligini tinchligini abadiy saqlamog‘imiz, Yurtimiz sarhadlarini yanada cho‘qqilarga olib chiqmog‘imiz kerak. Zero prezidentimiz, **Bu yurtda har tomonlama sog'lom, o'zining kuch-qudrati, qattiq qomati bilan barkamolligi bilan o'zgalarning havasini uyg'otadigan el yashamog'i kerak"** -degan edilar. Biz ham prezidentimizning uchubuni so‘zlariga munosib inson bo‘lmog‘imiz lozim. Xalqimiz biz yoshlarga mustaqil davlatni qoldirishdi, biz ham uni asrab avaylab, yanada mustahkamlab kelajak avlodga yetkazishimiz kerak. Buning uchun bor e‘tiborimizni o‘qishga qaratishimiz, vatanimizga foydasi tegadigan yaxshi kadr bo‘lib yetishimiz lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Inatov M.N., Xolnazarova L.S., Maxammadiyeva S.I. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanidan o‘quv - uslubiy qo‘llanma. –Toshkent, ToshDTU, 2021
2. O.Ostonov O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI. (O‘quv qo‘llanma) T.: “Lesson Press” nashriyoti, 2022.,

3. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. Toshkent „Yuridik adabiyotlar publish“, 2023
4. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. To‘ldirilgan va qayta ishlangan to‘rtinchi nashr. - Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022.
5. H.M.Muhammedov, O.T Husanov, B. M Muhammedov „O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi "-Toshkent;„IQTISOD-MOLIYA’’ ,2016
6. I.A. Karimov „Vatan va xalq mangu qoladi"(Hikmatli so‘zlar va iboralar to‘plami) - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
7. Tilab Maxmudov „Mustaqillik va ma'naviyat" (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari asosida) Toshkent : „Sharq" nashriyoti ,2001.
8. Mehrangiz Najmutdinova „O‘zbekiston Respublikasi suverenligining huquqiy asosi" Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor ,2023
9. Firdavs Akramjon o‘g‘li Zayniddinov „O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUVERENITETINING HUQUQIY ASOSI" Republican Scientific and Practical Conference ,2023
10. B.T. Musayev, K.R. Aliyeva, B.A.Narimanov KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ // Darslik. – Toshkent: TDYU, 2020.
11. Azamova S. EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
12. Azamova S. UMUMTA’LIM MAKTAB O ‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
13. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.
14. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.



15. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
16. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
17. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
18. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
19. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
20. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
21. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.